Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320396

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR RAQOBAT BARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

TDIU “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
SOBIRJONOV MUXIDDIN TOXIRJON O‘G‘LI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalardan faoydalanish, korxona faoliyatini raqamlashtirish, raqobatbardoshlikni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muvofiqligini ta’minlash, raqobat ustunligi strategiyasini ishlab chiqish, korxonalar o‘rtasida erkin raqobat muhitini taьminlash kabi yo‘nalishlardagi mavjud muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirish uchun, avvalam bor, korxona egalari va mutaxassislari raqamli iqtisodiyot nima ekanligini va undan samarali foydalanish yo‘llarini bilishlari kerak. Raqamli iqtisodiyot bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas, bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyotning bir qancha afzalliklari hamda ijobiy tomonlari mavjud. Masalan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi inson uchun eng qimmatbaho bo‘lgan vaqtni tejashga, undan unumli foydalanishga ko‘maklashishi mumkin. Masalan, korxona boshqaruvida, xodimlarni boshqarishda, maketing tadqiqotlarini olib borishda, mijozlar bilan aloqani ta’minlashda, korxonadagi mahsulotlarni tahlil qilish jarayonlarida va ko‘plab korxonadagi vazifalarni bajarishda raqamli iqtisodiyotdan keng foydalanilmoqda[3].

Misol tariqasida ko‘radigan bo‘lsak, hozirgi kunda korxonalarda raqamli iqtisodiyotning bir shakli bo‘lgan raqamli texnologiyalardan ko‘proq foydalanilmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin”[2].

Turli tadqiqotlar natijalari bo‘yicha raqamli iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyotidagi salmog‘i 4,5 foizdan 15,5 foizgachani tashkil etadi. Jahon axborotkommunikatsiya texnologiyalari sektorida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatning deyarli 40 foizi va blokcheyn texnologiyalari bilan bog‘liq patentlarning 75 foizi Amerika Qo‘shma Shtatlari va Xitoy Xalq Respublikasi xissasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020-yil

Published: 05.06.2026

Cite this article: Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o‘g‘li (2026). Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirishning ahamiyati. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320396

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

13-fevral kuni axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadbirda keltirgan statistik ma’lumotlariga muvofiq AQShda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2 foizdan ham oshmaydi [5].

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta’sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so‘nggi o‘n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko‘rishimiz mumkin.


Raqamli iqtisodiyot korxonalar tadbirkorlikni rivojlanishida alohida ahamiyatga egadir. Hozirgi raqamli iqtisodiyot asrida korxonani yuritish qoidalari ham o‘zgarib borayotganligini kuzatish mumkin. An’anaviy iqtisodiyot sharoitida xaridorlar ishlab chiqaruvchi tomonidan qanday tovar yoki xizmatlar taklif etilsa shunga qanoat qilgan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida esa iste’molchi bozorga o‘z xohishini, takliflarini bayon etadi. Raqamli transformatsiyalar korxonalarga zamonaviy bozorga bog‘lanish uchun o‘z korxonasi sharoitiini yaxshilashga majbur etadi. Raqamli iqtisodiyotda xarajatlarni qisqarishi natijasida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning qiymati arzonlashib boradi, daromad topishning yangi yo‘nalishlarini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida, tovar va xizmatlar global bozorlarga tezda taklif etiladi, mazkur tovar va xizmatlar xususida esa dunyo- ning istalgan hududiga ma’lumotlar taqdim etiladi. Raqamli tadbirkorlik yangi biznes modellarni ishlab chiqilishini, yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli tadbirkorlar ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni kiritadilar va avtomatlashtirish jarayonini amalga oshiradilar. Raqamlashtirish va globallashuv bir birlari bilan uzviy bog‘liqdir [4].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirishda raqamlashtirish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayoni keltirishi mumkin bo‘lgan foyda va zararlar riskini to‘g‘ri baholashdan so‘ng ushbu jarayonni joriy qilish rejasi tuziladi. Umumiy holatda raqamli korxona konseptsiyasi va strategiyasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Korxonaning raqamli transformatsiyasi bir necha bosqichlardan o‘tadi (1-rasm) [2]. Korxonaning joriy holatida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash va aniq maqsadlarni belgilash. Belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ketma ketligini va strategiyasini tuzib chiqish. Ishlab chiqarishni raqamliga o‘zgartirishni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish tizimlarining gorizontal va vertikal integratsiyasi zarur va hozirda foydalanilayotgan axborot tizimlarining muhim qismi ma’lumot almashishi mumkin, ammo ularning muvofiqligi korxona ichida ham, o‘zaro ta’sir qiluvchi korxonalar o‘rtasida ham barcha darajalarda taominlanishi kerak. Yagona axborot makonini yaratish korxonalarni boshqarishning avtomatlashtirilgan

tizimlari va sanoat uskunalari o‘rtasida tezkor va o‘z vaqtida axborot almashish imkoniyatini beradi.


Yaqin 10 yillikda ishlab chiqarish, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ko‘plab sohalarda “smart” aqlli texnologiyalarning qo‘llanilishi hech kimga sir emas albatta. So‘nggi yillarda korxonalarning raqobat muhitida omon qolishiga imkon beradigan raqobatbardoshlikning ahamiyati keskin oshdi.

Keskin raqobat sharoitida zamonaviy korxonalar bozor holatiga tezda javob berishlari kerak. Buning uchun tashqi muhitning o‘zgaruvchan sharoitlariga o‘z vaqtida javob berishga imkon beradigan va tashkilotning ichki jarayonlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqish kerak [4].



1-rasm. Korxonalarni raqamli transformatsiyalash bosqichlari

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko‘rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo‘ladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin (2-rasm) [2]:



2-rasm. Raqobatning quyidagi asosiy vazifalari

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli iqtisodiyot qo‘llanilishi natijasida korxonalar raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmi korxona raqobatbardoshligini saqlab qoladi va iqtisodiy jihatdan samaradorlikni oshiradi, bundan tashqari zamonaviy, strategik, taktik, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali raqobatbardosh ustunlikka erishadi hamda raqobatbardoshlikni boshqarish modelini, koorporativ strategiya vamaqsadlarni, tizimli yondashuvni va boshqaruv metodoloyaiasini ishlab chiqadi. Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining o‘sishi birinchi navbatda korxonalarda raqamli iqtisodiyotning to‘g‘ri tashkil etilishi hamda “raqamli tadbirkorlikni” doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgani bilan bog‘liqdir. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida Respublikamiz oldida turgan muhim vazifalardan biri jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni keng yo‘lga qo‘yishdir. Bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri tadbirkorlar o‘rtasida sog‘lom raqobatni ta’minlash orqali, narxlarni pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh, eksportbop sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o‘rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo‘l ochish, “raqamli tadbirkorlikni” rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020- yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni

2.Ravzatov J.B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirish yo‘llari. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali | 6-son. 2024 y.

3.Porsaev G‘.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b

4. Raxmonqulov J.M., Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari va mamlakat innovatsion faoliyatini axborot texnologiyalri a sosida samarali rivojlantirish, “Iqtisod va moliya” jurnali, 2021, 6(142)

5. http://www.stat.uz

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA RAQAMLASHTIRISHNING STRATEGIK O‘RNI

TDIU “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
VOXOBOV XIKMATILLO MA’MIRJON O‘G‘LI

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoi y-iqtisodiy rivojlanishi va kelgusi taraqqiyotini ilm-fan, ilmiy, ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot asosida boshqarish tashkil etadi. Bu tizim raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turadi. Raqamli iqtisodiyotbu noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas, buyangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyotning bir qancha afzalliklari hamda ijobiy tomonlari mavjud. Masalan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi inson uchun eng qimmatbaho bo‘lgan vaqtni tejashga, undan unumli foydalanishga ko‘maklashishi mumkin.

Biron bir kitobning chop etilgan ko‘rinishini sotib olish shu kitobning elektron formatini sotibolishdan qimmatroqqa tushadi. Bu borada mamlakatimizda yaratilayotgan tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlarga e’tibor qaratsak, “Raqamli O‘zbekiston -2030» strategiyasida ”...zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish, innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, boshqaruv ma’lumotlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish, 2025 yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ulushini 90 foizga yetkazish”vazifasi belgilangan [1].

Aynan iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali jamiyatdagi mavjud barcha platformani qamrab olgan holda samaradorlik ko‘rsatkichlariga, iqtisodiyotda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatlilikka, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishga bandlik muammosiga, daromadlilik darajasiga, xarajatlarni optimallashtirishga erishishga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishni takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshiradi.